



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2024 yil “22” fevral 02701 - son

**“Pediatriyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta‘minlash, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarining mustaqilligini ta‘minlash, ular faoliyatida davlat ma‘muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta‘lim muassasalarini shakllantirish maqsadida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ”PQ-60-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. “Pediatriyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi (keyingi o‘rinlarda – Xalqaro konferensiya) xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari bilan TTA o‘rtasida imzolangan memorandumlar doirasida ilm – fan sohasida o‘rnatilgan samarali xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash va o‘zaro tajriba almashish maqsadida Xalqaro konferensiya Rostov davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda 2024-yil 16-martda TTAda o‘tkazilsin.
2. Xalqaro konferensiyaga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun mas‘ul etib oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini mudiri, t.f.d., professor I.A. Karimjanov, oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini professori, t.f.d. L.K. Raxmanova, oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini dotsentlari G.X. Iskanova va N.A. Israilovalar belgilansin.
3. Quyidagilar: Xalqaro konferensiya dasturi 1-ilovaga muvofiq, Xalqaro konferensiyani o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq, Xalqaro konferensiya ma‘ruzachilarining ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Imiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L. Azizova, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A. Muminova, oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasini mudiri, t.f.d., professor

I.A. Karimdjanov, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari: TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilarni mazkur buyruq bilan tanishtirsin; mazkur buyruq ilovalarida keltirilgan ro'yxatlar bo'yicha Xalqaro konferensiyada ishtirok etishi ko'rsatilgan TTA xodimlarining ishtirokini ta'minlasin.

5. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova: Xalqaro konferensiya yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar haqida 5 (besh) kun muddat ichida Sog'liqni saqlash vazirligining Fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot topshirsin; Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga sertifikatlarni tayyorlash va konferensiya ishtirokchilarini o'rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan ta'minlashni amalga oshirsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini ta'minlash Imiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L. Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

I.Karimdjanov

Kafedra mudiri

Kelishildi:

Sh.Boymuradov

Rektor v.v.b.

F.Azizova

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor**

Sh.Islomqulova

Yuriskonsult

J.Israilov

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor